

AGROKLASTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH

O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: uurinboyev2504@gmail.com

Аннотация

Ushbu maqolada agroklastlar faoliyatining samaradorligini oshirish ko'rsatkichlari batafsil baholangan va tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Xorazm viloyatidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi asosiy indikator sifatida o'rganilib, uning agroklastlar samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda baholangan. Shuningdek, mahsulot sifat ko'rsatkichlari, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor ulushi, qayta ishlash hajmi va innovatsion faoliyat kabi qo'shimcha iqtisodiy va texnologik ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ularni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agroklastlar, samaradorlik ko'rsatkichlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat, bozor ulushi, qayta ishlash hajmi.

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрены и проанализированы показатели повышения эффективности деятельности агрокластеров. В рамках исследования был изучен объем производства сельскохозяйственной продукции в Хорезмской области как основной индикатор и оценено его влияние на эффективность работы агрокластеров на научной основе. Кроме того, проанализированы дополнительные экономические и технологические показатели, такие как качество продукции, производительность труда, эффективность использования ресурсов, доля на рынке, объем переработки и инновационная деятельность, а также предложены практические рекомендации по их улучшению.

Ключевые слова: агрокластеры, показатели эффективности, сельскохозяйственная продукция, качество продукции, производительность труда, инновационная деятельность, доля на рынке, объем переработки.

Abstract

This article provides a detailed assessment and analysis of the indicators for enhancing the efficiency of agrocluster activities. The study examined the volume of agricultural production in the Khorezm region as a key indicator and evaluated its impact on the efficiency of agroclusters on a scientific basis. In addition, supplementary economic and technological indicators, including product quality, labor productivity, resource use efficiency, market share, processing volume, and innovation activity, were analyzed, and practical recommendations for their improvement were developed.

Keywords: agroclusters, efficiency indicators, agricultural products, product quality, labor productivity, innovation activity, market share, processing volume.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi sektori mintaqaviy iqtisodiyotning eng muhim tayanch sohalaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, ish bilan bandlikni oshirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu sohada agroklasterning samaradorligi hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini belgilaydi. Agroklasterning samaradorligini baholashda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor ulushi, qayta ishlash hajmi va innovatsion faoliyat kabi iqtisodiy va texnologik indikatorlar asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular klasterlarning barqaror rivojlanish darajasini aniqlashda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellikni sezilarli darajada oshirish, eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohada jami 15 milliard dollar miqdorida investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichini 25 foizdan yuqori darajaga ko‘tarish kabi vazifalar belgilangan. Shuningdek, hududlarda 2,5 million tonna quvvatga ega bo‘lgan 100 ta yangi agrologistika markazlarini tashkil etish va ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish strategik maqsad sifatida ko‘zda tutilgan.

Global va mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi sharoitida agroklasterning samarali faoliyati innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, resurslardan optimal foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish orqali mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, mazkur maqolada agroklasterning samaradorligini baholash, ularning asosiy indikatorlarini tizimli tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirish bo‘yicha amaliy va strategik tavsiyalar ishlab chiqarish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va qishloq xo‘jaligi eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks chora-tadbirlarni aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi tadqiqotlar agroklasterning samaradorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish masalalariga e‘tibor qaratmoqda. A. Subeesh va C.R. Mehtalar [3] sun‘iy intellekt va IoT texnologiyalari asosida qishloq xo‘jaligini avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. J.Doshi va hammualliflari [4] IoT texnologiyalari yordamida aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlarini joriy etish va ishlab chiqarish sharoitlarini optimallashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. R.K. Goel va hammualliflari [5] resurslardan samarali foydalanish, mehnat unumdorligi va bozor talabini qondirish zaruratini ta‘kidlagan bo‘lsa, C. Johansen va hammualliflari [6] kichik fermer xo‘jaliklari uchun konservatsion qishloq xo‘jaligi va mexanik ekish tizimlari orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Shu tarzda, adabiyotlar agroklasterning samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan

cheklanmasligini, balki mahsulot sifati, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yanada oshirilishini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot doirasida agroklastlar samaradorligini baholash uchun statistik tahlil usullari qo'llanildi. Asosiy indikatorlar-mahsulot hajmi, sifat ko'rsatkichlari, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor ulushi va qayta ishlash hajmi-tahlil qilinib, ular o'rtasidagi bog'liqlik va samaradorlikni oshirishga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi so'nggi o'n yillikda sezilarli o'sish sur'ati bilan namoyon bo'lmoqda. Ushbu tendensiya viloyatdagi agroklastlar faoliyatining samaradorligini baholashda muhim indikator sifatida xizmat qiladi. Mahsulot hajmining ortishi klaster a'zolari o'rtasidagi resurslarni samarali taqsimlash, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish hajmi bilan birga agroklastlar samaradorligini oshirish uchun bir qator strategik yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur. Ularga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish, shuningdek, bozorlarni kengaytirish va qo'shimcha qiymat yaratish mexanizmlarini tatbiq etish. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati klasterlar a'zolari o'rtasida integratsiya va hamkorlikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tahlillar asosida Xorazm viloyatida agroklastlar faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari orqali baholash va istiqbolli strategiyalar ishlab chiqish mumkin. 1-rasmda 2010–2024-yillarda viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi keltirilgan (1-rasm).

2010–2024-yillar davomida Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi barqaror o'sish sur'atini ko'rsatdi. 2010-yilda umumiy ishlab chiqarish qiymati 1932,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 28415,7 mlrd. so'mga yetdi. Natijada, 14 yillik davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymati taxminan 14,7 barobar oshgan. Ushbu o'sish sur'ati yilma-yil o'rtacha hisobda 25,7% ni tashkil qiladi, bu esa sohada amalga oshirilgan modernizatsiya, investitsiyalar va samarali boshqaruv siyosati natijasini aks ettiradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, 2010–2014-yillarda o'sish nisbatan barqaror va izchil bo'lib, yillik o'sish 700–1200 mlrd. so'm atrofida bo'lgan. Ushbu davrda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi ko'p jihatdan an'anaviy usullarga va mavjud infratuzilmaga bog'liq bo'lgan. 2015-yildan boshlab o'sish sur'ati sezilarli darajada tezlashgan, xususan, 2017–2018-yillarda ishlab chiqarish hajmidagi yillik o'sish eng yuqori ko'rsatkichga — 3338 mlrd. so'mga yetgan. Bu davr yangi texnologiyalar joriy etilishi, klaster asosida ishlab chiqarish tizimining rivojlanishi va investitsiya kiritishning ortishi bilan izohlanadi.



1-rasm. Xorazm viloyatida Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)¹

2020–2024-yillar davomida esa ishlab chiqarish hajmi yanada barqarorlashgan bo‘lib, yillik o‘shish sur‘ati biroz sekinlashgan. Shu bilan birga, umumiy tendensiya ijobiy bo‘lib qolmoqda, bu esa qishloq xo‘jaligi sohasida uzoq muddatli strategik rejalarni amalga oshirish va resurslarni optimal taqsimlash imkoniyatini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, 2010–2024-yillar davrida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining doimiy va yuqori sur‘atli o‘shishi Xorazm viloyati iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tendensiya nafaqat mamlakat ichki talabini qondirish, balki eksport salohiyatini oshirish va qishloq xo‘jaligi sohasida innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun ham muhim zamin yaratadi. Kelajakda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya va resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion yechimlarni keng tatbiq etish orqali ushbu sektorning ijobiy o‘shish sur‘atini saqlab qolish imkoniyati mavjud (1-jadval).

1-jadval

Agroklastarlari faoliyatini samaradorligini oshirish ko‘rsatkichlari va tavsiyalar²

№	Ko‘rsatkich nomi	Tavsifi	Samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar
1	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	Agroklastar tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy qiymati	Ekin maydonlarini optimallashtirish, hosildorlikni ilmiy asosda oshirish, hosilni diversifikatsiya qilish

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

№	Ko'rsatkich nomi	Tavsifi	Samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar
2	Mahsulot sifat ko'rsatkichlari	Mahsulotning texnologik va me'yoriy standartlarga muvofiqligi, eksport salohiyati	Sifat nazorat tizimlarini joriy etish, sertifikatlash, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish
3	Mehnat unumdorligi	Bir ishchi yoki ishchi guruh tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati yoki hajmi	Ish jarayonlarini avtomatlashtirish, professional treninglar va malaka oshirish dasturlarini tatbiq etish
4	Resurslardan foydalanish samaradorligi	Suv, energiya, o'g'it va boshqa resurslarni iqtisodiy jihatdan optimal ishlatish darajasi	Suvni tejash va energiya samaradorligi texnologiyalarini joriy etish, resurslarni monitoring qilish
5	Bozor ulushi	Viloyat va respublika bozoridagi mahsulot ulushi, raqobatbardoshlik darajasi	Marketing strategiyalarini ishlab chiqish, brend yaratish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish
6	Qayta ishlash hajmi	Xomashyoni qo'shimcha qiymatga aylantirish hajmi	Kichik va o'rta sanoat quvvatlarini rivojlantirish, xomashyoni qayta ishlashni ilmiy asosda optimallashtirish
7	Innovatsion faoliyat	Yangi texnologiyalar, boshqaruv metodlari yoki ilmiy-tadqiqot natijalarini tatbiq qilish	Innovatsion grantlar, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik, ilmiy asoslangan texnologiyalarni joriy etish

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi. Bu ko'rsatkich viloyatdagi agroklasterning asosiy iqtisodiy samaradorligini aks ettiradi va ishlab chiqarish o'sish sur'atlarini monitoring qilish imkonini beradi. Mahsulot hajmining ortishi nafaqat iqtisodiy jihatdan ijobiy natija beradi, balki klaster a'zolari o'rtasida resurslarni, ishchi kuchi va texnologik jarayonlarni samarali taqsimlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu parametr klaster ichidagi o'zaro integratsiya va kooperatsiya darajasini ham ko'rsatadi. Hajmning barqaror o'sishi viloyat agroiqtisodiyotining mustahkam poydevorini yaratadi, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi va klasterning rivojlanish strategiyasini shakllantirishda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi.

Mahsulot sifat ko'rsatkichlari. Sifat ko'rsatkichlari agroklasterning raqobatbardoshligini oshirish va ichki hamda tashqi bozorlarda barqaror pozitsiyani saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Mahsulotning standartlarga mosligi, texnologik sifat va eksport salohiyati klasterning bozor muvaffaqiyatini aniqlaydi. Sifat ko'rsatkichlarini oshirish orqali ichki bozor ishonchini mustahkamlash, eksportni rivojlantirish va xalqaro sertifikatlash tizimlariga muvofiqlikni ta'minlash mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, sifat nazorat tizimlarini joriy etish va mahsulotni sertifikatlash ushbu parametрни yaxshilashda muhim hisoblanadi.

Mehnat unumdorligi. Mehnat unumdorligi klasterdagi ishchi kuchining samaradorligini va ishlab chiqarish jarayonining effektivligini o'lchaydi. Yuqori mehnat unumdorligi ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va ishchi kuchidan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish,

professional malaka oshirish dasturlarini joriy etish va ishchi motivatsiyasini yaxshilash zarur. Shu bilan birga, mehnat unumdorligi resurslarni tejash va ishlab chiqarish samaradorligini barqaror oshirish bilan bevosita bog'liqdir.

Resurslardan foydalanish samaradorligi. Bu ko'rsatkich suv, energiya, o'g'it va boshqa ishlab chiqarish resurslarini optimal ishlatish darajasini aks ettiradi. Samaradorlikni oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energiya tejamkorligi va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, monitoring tizimlarini tatbiq etish, suv va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Shu tarzda, resurslardan oqilona foydalanish agroklasterning iqtisodiy va ekologik barqarorligini mustahkamlaydi.

Bozor ulushi. Bozor ulushi viloyat va respublika bozoridagi mahsulot ulushini ko'rsatadi va klasterning raqobatbardoshligini aks ettiradi. Yuqori bozor ulushi klaster mahsulotining talabga javob berishini, raqobatbardoshligini va viloyat bozoridagi salohiyatini oshirishni bildiradi. Bu ko'rsatkichni yaxshilash uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish, brend yaratish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va mahsulot assortimenti diversifikatsiyasini amalga oshirish zarur. Bozor ulushining oshishi klasterning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga va yangi investitsiyalar jalb qilishga xizmat qiladi.

Qayta ishlash hajmi. Qayta ishlash hajmi xomashyoni qo'shimcha qiymatga aylantirish darajasini aks ettiradi va klasterning ishlab chiqarish zanjirida qo'shimcha daromad manbalarini yaratish imkonini beradi. Shu orqali klaster iqtisodiy barqarorlikni oshiradi va ishlab chiqarish zanjiridagi innovatsion jarayonlarni rivojlantiradi. Kichik va o'rta ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish va texnologik modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshadi.

Innovatsion faoliyat. Innovatsion faoliyat yangi texnologiyalar, boshqaruv metodlari va ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilish orqali uzoq muddatli rivojlanish va klaster ichidagi integratsiya hamkorligini mustahkamlash imkonini beradi. Innovatsiyalar klaster texnologiyalarini modernizatsiya qiladi, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratadi, raqobatbardoshlikni oshiradi va bilim almashinuvini kuchaytiradi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytiradi va klasterning barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, mazkur ko'rsatkichlarni tizimli ravishda monitoring qilish, har birini alohida rivojlantirish va innovatsion yechimlarni tatbiq etish orqali Xorazm viloyatidagi agroklasterning samaradorligi nafaqat iqtisodiy, balki texnologik, ijtimoiy va bozor salohiyati jihatidan ham barqaror oshadi. Bu esa viloyatdagi agroklasterning kompleks rivojlanishini, resurslardan oqilona foydalanishni va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agroklasterning samaradorligini oshirish faqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan cheklanmaydi. Mahsulot sifatini

yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, bozor ulushini kengaytirish va qayta ishlash hajmini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv metodlarini tatbiq etish orqali agroklasterning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqiladi: birinchi navbatda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish, ikkinchidan sifat nazorat tizimlarini mustahkamlash, uchinchidan resurslarni tejovchi va energiya samarador texnologiyalarni joriy etish, to'rtinchidan marketing va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha strategiyalarni amalga oshirish. Mazkur choralar agroklasterning faoliyatini kompleks rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023-yil 11-sentabr PF-158-son. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/en/docs/-6600413>
2. Juraev, F. D. S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agriconomic System In A Market Economy. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 49-54.
3. A. Subeesh and C.R. Mehta, Automation and digitization of agriculture using artificial intelligence and internet of things, *Artif. Intell. Agric.*, vol. 5, pp. 278–291, 2021,
4. J. Doshi, T. Patel, and S. Kumar Bharti, Smart Farming using IoT, a solution for optimally monitoring farming conditions, in *Proc. Comput. Sci.*, vol. 160, pp. 746–751, 2019
5. R.K. Goel, C.S. Yadav, S. Vishnoi, and R. Rastogi, Smart agriculture – Urgent need of the day in developing countries, *Sustain. Comput.: Inform. Syst.*, vol. 30, p. 100512, 2021
6. C. Johansen, M.E. Haque, R.W. Bell, C. Thierfelder, and R.J. Esdaile, "Conservation agriculture for small holder rainfed farming: opportunities and constraints of new mechanized seeding systems," *Field Crops Res.*, vol. 132, pp. 18–32, 2012.
7. W. Xu, Y. Li, and S. Chen, "Empirical analysis of agro-industrial clusters and total factor productivity," *Agricultural Economics Review*, vol. 44, no. 1, pp. 55–70, 2024.
8. <https://xorazmstat.uz/uz/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**